

Farzandingizning ijobiy qahramoni bo'ling!

// 12 December 2022 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/video/farzandingizning-ijobiy-qahramoni-boling>

Xalqimiz, davlatimiz bugunini kechadan ko'ra yanada yaxshilashni har birimiz xohlaymiz, ammo bu intilish halollik va vijdonni poymol qilib, ertani barbod etish evaziga amalga oshirilmaligi kerak.

Korrupsiya butun jamiyat va davlat uchun ana shunday halokatlidir.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, **korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.**

9-dekabr — Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tomonidan **"O'zkiyosanoat" AJ** hamkorligida tayyorlangan ushbu qisqa metrajli filmda shu maqsad ilgari surilgan.